XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - iyul VI-50-78-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Zomin tumani 2023 yil 2 chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi, 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan, Moliya vazirligining 2021 yil 16 apreldagi 06/03-32/883-sonli ko‘rsatma xati ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. Zomin tumani 2023 yil 2 chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy byudjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin va 2023 yil 2 chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh xisobchisi v.v.b (A.Ro‘zibekov)ga ajratilgan mablag‘ni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna xisobvarag‘iga o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi boshlig‘i (O.Gaffarov)ga ushbu mablag‘ni tegishli tartibda moliyalashtirilishini ta’minlasin.

6. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va ushbu mablag‘larning boshqa maqsadlarga

ishlatilishi ta’qiqlansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining maxalliy budjet, iktisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi S.Ergashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**